

chorvachilik yoki oziq-ovqat ekinlarini etishtirish uchun erlar tozalanadi. Agar o'rmonlarni kesish va o'rmonlarni qayta tiklash sur'ati va yondashuvi o'zgarmasa, 2030 yilga kelib sayyorada o'rmonlarning atigi 10 foizi bo'lishi mumkin.

Havoning ifloslanishi. Havoning ifloslanishi ham eng doimiy ekologik muammolardan biri. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, dunyo bo'ylab har yili 4,2 milliondan 7 milliongacha odam havoning ifloslanishi tufayli vafot etadi va har 10 kishidan 9 nafari yuqori darajadagi ifloslantiruvchi moddalarni o'z ichiga olgan havodan nafas oladi.

Ukrainadagi urush atmosferaga eng katta ta'sir ko'rsatadi, chunki harbiy harakatlar doimiy yong'in va portlashlar bilan ham bog'liq. Har ikki tomon bir-birining pozitsiyalari, o'q-dorilar ombori va jihozlariga putur etkazmoqda. Atmosferaga millionlab tonna chiqindilar kiradi - mayda chang, azot oksidi, oltingugurt oksidi, aldegid, angidrid va boshqalar. Davlat inspeksiyasi ma'lumotlariga ko'ra, urush natijasida atmosferaga etkazilgan hisob-kitob yo'qotishlari hozirda 1000 milliard Ukraina grivinini tashkil etadi. Xaritamizda real vaqt rejimida Ukrainadagi havo holatini kuzatishingiz mumkin.

Turli chiqindilar bilan ekotizimlarning ifloslanishi. Oziq-ovqat chiqindilari. Inson iste'moli uchun mo'ljallangan oziq-ovqatning uchdan bir qismi - taxminan 1,3 milliard tonna - tashlanadi yoki yo'qoladi. Va bu mahsulotlar chiriganida, yillik issiqxona gazlari chiqindilarining uchdan bir qismi chiqariladi. Qizig'i shundaki, rivojlanayotgan mamlakatlarda oziq-ovqat chiqindilarining 40% yig'ish va qayta ishlashdan keyin hosil bo'ladi, rivojlangan mamlakatlarda esa 40% chakana savdo va iste'mol qilish jarayonida hosil bo'ladi. Misol uchun, AQShda mahsulotning 50% dan ortig'i o'zining "jozibali" ko'rinishi tufayli chiqindiga aylanadi - bu taxminan 60 million tonna meva va sabzavotlar. Oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan bunday munosabat dunyoning ko'plab mamlakatlarida oziq-ovqat xavfsizligining etishmasligiga olib keladi.

Tog'-kon va qurilish sanoati chiqindilari. Insoniyatning mavjudligi juda katta miqdordagi resurslarni talab qilganligi sababli, dunyo konchilik va qayta ishlash sanoatida faoldir. Biroq, hamma narsa juda oddiy emas va birlamchi qazib olingan resurslarning aksariyati tozalashni talab qiladi, bu esa katta hajmdagi sanoat chiqindilarining paydo bo'lishiga olib keladi. Xususan, birgina AQShda har yili 8 milliard tonnadan ortiq bunday chiqindilar paydo bo'ladi. Turiga qarab ular nafaqat katta maydonlarni egallashi, balki atmosferani va yer osti va yer usti suvlarini ham ifloslantirishi mumkin.

Qurilish chiqindilari atrof-muhitga xuddi shunday ta'sir ko'rsatadi. Urush tufayli Ukrainada o'nlab, yuzlab aholi punktlari vayron bo'lgan. Vaqt o'tishi bilan yaroqsiz binolar va ularning chiqindilarini yo'q qilish masalasi paydo bo'ladi: ularni nafaqat maxsus poligonlarda saqlashni, balki qayta ishlashni ham tashkil qilish kerak bo'ladi.

Atrof-muhitni muhofaza qilishning yanada samarali usuli bu ekologik tashkilotlar bilan hamkorlikdir. Faqat birgalikda biz tabiatimizni himoya qila olamiz va barcha uchun orzu qilingan barqaror va do'stona kelajakni qura olamiz!

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI MAVJUD SUV ZAXIRALARIDAN FOYDALANISH MADANIYATINI AHOLI O'RTASIDA KENG MIQYOSDA TARG'IB QILISH

*Maxmudov Abdulaziz Axliddin o'g'li
Farg'ona Politexnika instituti*

O'zbekiston Respublikasidagi bugungi kundagi mavjud ekologik muamolarning kelib chiqishning asosiy sabablaridan biri bu SSSR davlatining bizni yurtimizdagi Paxta maydonlarini ko'paytirishi bilan bog'liq. Kommunistik partiya va Sovet hukumatining 1956-yilgi va 1958-yilgi Mirzacho'l yerlarini sug'orish va o'zlashtirish sohasidagi ishlarni yanada kengaytirish va tezlashtirish haqida qarorlari Mirzacho'lni o'zlashtirishda yangi eng katta bosqichga qadam qo'yilganligini ko'rsatadi. Mirzacho'lni o'zlashtirishni davom ettirish texnika jihatdan juda murakkab ishlarni amalga oshirishni taqazo qilgan. Mirzacho'lni bundan buyong(1956-yildan)

sug'orish tizimida Janubiy kanal markaziy o'rinni egallaganini quyidagi qilingan ishlardan bilib olish mumkin. Janubiy kanal O'zbekiston va Qozog'istonning 290 ming gektardan ortiq yeriga suv chiqarishni ta'minladi. Kanalning janub tomonida joylashgan maydonlarga suv mashina bilan beriladi. Shu maqsadda Boyovut tumanida yirik nasos stansiyasi qurildi. Mirzacho'dagi Jizzax, Bekobod, Yangiyer shaharlarida qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi katta-katta zavodlar qurilib, mirzacho'l yerlarini o'zlashtirish ishlari kun sayin kengaytirildi. Masalan, 1957-yilda Mirzacho'da olib boriladigan ishlar uchun 250 million so'mga yaqin pul ajratilgan bo'lsa, 1959-yilda 430 mln so'mdan ortiq pul ajratildi. Bu esa Mirzacho'ning o'zlashtirilishini qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. 1955-1959-yillar esa eski zonadagi yerlarning melioratsiya holatini tubdan yaxshilash va yangi ekin maydonlarini kengaytirish uchun katta suv xo'jaligi ishlarini avj oldirish yili bo'ldi. O'sha vaqtdan e'tiboran tajriba uchun 4 sovxoz qurish ishlari keng avj oldirib yuborilgan. 4-sovxozning tajribasi II va III navbatda o'zlashtiriladigan yerlarni o'zlashtirishda keng foydalanildi. Shu tariqa Mirza cho'lning o'zlashtirilishi Sirdaryo suvining bir qismi shu cho'larni o'zlashtirishga ketdi. Natijada yillar davomida Sirdaryo suvining orol dengiziga quyilishi kamayib bordi. 2024-yilga kelib hozirda Orol dengizi butkul quridsa natijada Orol fojeasiga aylandi. Orol dengizidan kechish orqali biz yo'q joydan bir borliqni yaratdik. Lekin hozirgi kundagi yana bir holat mintaqamizga havf solmoqda. Jumladan O'zbekiston hududi 2030-yillarga borib katta miqdordagi qurg'oqchilik boshlanishi kutilmoqda. Bunga asosiy sabab ikki daryo Amudaryo hamda Sirdaryo suvlari to'g'ri taqsimot qilinmaganligidadir. Asta sekinlik bilan Vohaning ko'p qisimlar cho'l hududiga aylanish arafasida. Bundan 3-yil oldin O'zbekiston hududida dastlabki qum bo'ronlari boshlandi. Buning sababi esa bizning yerlarimizdagi qum zaralaridan namlik darajasi yo'qolib borishi natijasida tuproqlar qurib shamol bo'lgan vaqtda tepaga ko'tarilib havo bilan aralashib qum bo'ronlarini hosil qilayotgani bo'ldi. Statistik ma'lumotlarga qaraganda O'zbekiston hududi asta-sekin cho'lashib borayotgan hududga aylanib boryapti. Havo tarkibidagi gaz-chang tashlamalarining hajmiy ulushi ortishi mintaqamizning ayrim shaharlari, jumladan Toshkent shahrida yashash va ishlashni qiyinlashtirmoqda. Bizda yildan yilga mavsumiy yong'ingarchiliklar kamayib ketayotgan va qurilish sanoati o'sib borayotgan shaharlar havosiga yirik o'lchamdagi chang zaralari chiqishi va yomg'irlar yog'ishi natijasida ularni tuproq qatlamiga bosilishi va yana kunlar isishi hamda harakatlar soni ortishi bilan bu zaralar yana havoga ko'tarilmoqda va shahar axolisi uchun jiddiy xavf tug'dirmoqda. Bularni oldini olishda Xitoy tajribasini o'rganish kerak. Xitoy tajribasini olib qarasa ular havosi eng iflos shaharlarni tozalash uchun havo tarkibidagi yirik o'lchamdagi changlarni yig'ib oluvchi maxsus qurilmalar o'rnatishdi va suniy yomg'irlar yog'dirish orqali mikro o'lchamdagi chang zaralarini tuproq qatlamiga bostirishdi. Bu tajriba orqali shahar havosini asta sekinlik bilan tozalashga erishildi. Bu tajribani hozirgi Toshkent shahrida amalda qo'lab ko'rish kerak. To'g'ri buning uchun katta mablag' kerak bo'ladi. Lekin poytaxtimizning havosi musafoligini taminlash barchamizning burchimizdir. Butun dunyoda suv tanqisligi global muammoga aylanmoqda. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko'ra, 2050 yilgacha suv resurslari Sirdaryo havzasida 5 foizgacha, Amudaryo havzasida 15 foizgacha kamayishi kutilmoqda. Samarqandda bo'lib o'tayotgan oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha xalqaro konferensiyada ham ushbu muommoga alohida e'tibor qaratilgan. 2017-2022 yillarda jami 1,4 mln. gektarda suv tejoychi texnologiyalar joriy etildi. Shundan, 398 mingga tomchilatib, 31 mingga yomg'irlatib, 16 mingga diskret sug'orish, 273 mingga egiluvchan quvur, 236 mingga egatga plynka to'shab sug'orish joriy etilib, 452 mingga lazerli tekislandi. Natijada 3 mlrd.m3 suv iqtisod qilinib, qo'shimcha 400 mingga maydonda suv ta'minoti yaxshilandi.

Suv tejoychi texnologiyalarni mahalliy lashtirish darajasi 80 foiz bo'lib, mamlakatda bu bilan shug'ullanadigan korxonalar soni 50 tadan oshgan. O'zbekiston suv tejoychi texnologiyalarni joriy qilish bo'yicha Markaziy Osiyoda birinchi, MDH davlatlari orasida ikkinchi, Osiyoda to'rtinchi va dunyoda 13-o'rinni egallaydi.

Xulosa.

Xulosa o'rnida shuni aytib o'tishim keraki aholi o'rtasida suvdan foydalanish madaniyatini keng targ'ib qilishda avvalombor omavviy axborot vositalarini ro'li kattda. Mamlakatimizda sodir

bo'layotgan bunday fojialarga befarq bo'lsak bir kun kelib sun'iy intellekt tomonidan taxmin qilinga

voqeyliklarni boshimizdan kechiramiz. Bugungi kunda mintaqamizda asosan ikki muammo, chuchuk suv zaxiralarining kamayib borishi va atmosfera havosining sezirarli darajada ifloslanish. Suv zaxiralarimizni kamayishini oldini va ularni hajmini oshirish uchun bir qancha takliflar taqdim etaman.

1) Sug'oriladigan yerlarni suv tejoychi texnologiyalar bilan ta'minlash va suv kanalari havzalarini sement orqali ishlov berish orqali suv yo'qotishlarini oldini olish.

2) Suv bilan taminlash qiyin bo'lgan va suv katta yo'qotishlar bilan yetib boradigan hamda yer unumdorligi past bo'lgan va sho'rlashgan yer maydonlarini sug'orish tizimidan chiqarish.

3) Sug'orish tizimidan chiqarilgan yer maydonlarini yashil energetika olinadigan maydonlarga aylantirish. Ya'niy quyosh panelarining katta-katta agrigatlarini o'rnatish orqali aholimizning elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojini 80% ni yashil energetika orqali tam'inlash imkonini beradi. Bu yo'l orqali atmosferaga chiqarilayotgan IES larning gaz tashlamalarini sezirarli darajada kamaytiradi.

Bu takliflar orqali kelajakda ko'zlagan maqsadlarimiz sari olg'a intilaveramiz va xalqimizning yashash turmish tarzi yaxshilanib boradi. Mamlakatimiz rahbari ham bu masalalarda BMT ning iqlim o'zgarishi bo'yicha 28-konferensiyasidagi nutqida ham O'zbekistonda 2030-yilga borib qiymati 25 GVt qayta tiklanadiga energiya quvvatlari barpo etilishi haqida takidlab o'tdilar. Hozirgi kundagi axolining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyoji 14,4 GVt ni tashkil qilmoqda. Taqqoslab ko'rsak 2030-yilga borib yashil energiyaning ulushi mamlakatimiz aholisi ehtiyojini 85% ga yaqinini ta'minaydi. Bu esa kelajakda turli xil ekologik muamolarni hal qilishning dastlabki poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyevning BMT iqlim o'zgarishi bo'yicha 28-konferensiyasidagi nutqidan 2023-yil 2-dekabr.
2. Mirzacho'lning buguni, ertasi "O'zbekiston KP Markaziy Komitetining birlashgan nashriyoti". Toshkent-1964.:B-11-12-13.

SUV RESURSLARI MUAMMOLARI

Mo'minova Ra'noxon Nabijanovna, Yuldashbaeva Oysha Dilmurodjon qizi
Muminovaranoxon@kspi.uz
Qo'qon Davlat pedagogika instituti

Suv ajralmas va shu bilan birga ijtimoiy, tabiiy va iqtisodiy farovonlikni belgilaydigan noyob ne'matdir. Shuning uchun, agar insoniyat demografik va iqlim sharoitida barqaror yashash va omon qolishni istasa, uni tabiiy-iqtisodiy resurslarning bir qismi sifatida emas, balki inson hayoti sifatini ta'minlaydigan ham tabiiy sub'ekt sifatida ko'rib chiqish kerak. Suv tanqisligi nafaqat davlat iqtisodiyotiga, balki aholining turmush darajasiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadigan dolzarb muammo hisoblanadi. Insonlar turmush darajasining yomonlashishi, bir qator kasalliklarni rivojlantiradi, yetishmovchilik kundalik hayotda xavfli manbalardan suv ishlatishga majbur qiladi. Suv resurslarini boshqarish iqtisodiy rivojlanish ehtiyojlarini qondirishi kerak [1].

Iqlim o'zgarishi natijasida mutaxassislarning fikriga ko'ra, Shimoliy suv resurslari Markaziy Osiyoning tekislik qismida 2030 yilgacha 6% dan 10% gacha, 2050 yilgacha esa 4-8% kamayishi mumkin. Tog'li hududlarda oqim 2030 yilgacha o'zgarib, 2050 yilga esa oqim 7-17% gacha kamayishi mumkin [2]. Tog' muzligining deyarli to'liq degradatsiyasi natijasida, tog'li hududlarning suv resurslari 10-12% foizga kamayadi [3].

Ammo davlat chetda qolmaydi, balki ushbu masalalarga munosib e'tibor beradi. So'nggi o'n yil ichida mamlakat suv va sanitariya xizmatlarini modernizatsiya qilishga sarmoya kiritdi. Shuningdek, mamlakatimizda ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish davlat inspeksiyasi to'g'risida Nizom mavjud bo'lib, prezident farmoniga binoan qishloq va suv xo'jaligida